

Muxiddinova Oydinoy Fazliddin qizi

Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti talabasi

Nosiraliyeva Xusnida Nizomjon qizi

Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada manzarali o'simliklar toifasining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Manzarali o'simliklar, bog' va mevasi, yoki gullar bog'larini chiroyli qilish, shaharning estetik ko'rinishini yaxshilash hamda tabiatni saqlashda katta ahamiyatga ega. Bu maqola o'simliklar turining o'ziga xos ko'rinish, rang, o'sish usullari, va mevalarni olish xususiyatlari haqida tafsilotlar bilan ta'minlanadi. Qo'shimcha ravishda, bu o'simliklar salomatlik, samarali o'sishi, joylashuvi va manzaralarni yaratishdagi roli, va ularning qo'llaniladigan xususiyatlari keltirilgan. Manzarali o'simliklar turini aniqlash, joylashuvi, turli joylarda o'sishi va qo'llanilishi, maqolaning eng muhim qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Manzarali o'simliklar, peyzaj dizayni, xususiyat, estetik, tur, bog', meva, ekologiya.

Bugungi kunda ko'chalar, xiyobonlar, jamoat dam olish maskanlarida faqat manzarali daraxt va o'simliklar ekiladi. Jamoat joylariga ekiladigan manzarali o'simliklar sog'lomlashtiruvchi va himoya qiluvchi xususiyatlarga ega. O'ziga xos tarzda mikroiklim yaratadi, ifloslantiruvchi moddalarni o'zlashtirib, havoni changlardan tozalaydi. Turar-joylarni shovqindan himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi, ba'zi o'simliklar patogenlarning rivojlanishini to'xtatadigan fitonsit xususiyatiga ham ega.

Hozirgi kunda atrof-muhitning ifloslanishi aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu maqsadda butun dunyoda tabiiy atmosfera havosining tarkibini o'rganish va monitoring qilish zarurligi aniqlanmoqda. Ma'lumki, atmosferaning havo tarkibi turli xil changlardan biologik kimyoviy zarrachalardan tarkib topgan. Bularning hammasi inson salomatligi uchun juda katta ta'sir etuvchi omil sifatida qaralmoqda.

Daraxt o'simliklari o'zining go'zalligi, shakllari va rangining har xilligi bilan odamlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Tabiatning bu go'zal asarlari har doim o'zgarib turadi. Tashqi muhit o'simlik organizmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ularning tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, kun sayin o'sishi shu tashqi muhitga chambarchas bog'liqdir.

Tarixiy rivojlanish jarayonida daraxt o'simliklari har xil ekologik sharoitlarda o'sishga moslashib qolgan. Ba'zi turlari quruq qumli yerlarda o'sadi (qarag'ay, archa, saksovul va boshqalar), boshqalari uchun esa tuprog'ni mahsuldor va namligi yuqoriroq sharoit ke rak bo'ladi (qora qarag'ay, terak, tol). O'simliklarning haroratga, yorug'lik va havo ning namligiga ham talabchanligi har xildir.

Yorug'likka bo'lgan munosabatiga qarab manzarali daraxtlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Yorug'sevar daraxt va butalar – tikansimon gledichiya, saksovul, ipak akatsiya, qayin, tilog'och, botqoq sarvi, virgin archasi, sharq biotasi, oddiy va qrim qarag'ayi, oddiy va pensilvan shumtollari, yapon saforasi, oq tut, mayda bargli va sadaqayrag'och,

shumtol bargli zarang, qora va oq teraklar, oddiy eman, aylant, mayda bargli jiyda, qum akas, kumush rang bargli chingil, to'bulg'a va chetanlardan iborat.

- Qalin soya hosil qiluvchi daraxtlar – soxta kashtan, mayda va yirik bargli jo'kalar, o'tkir bargli va dala zarangi, oddiy va qora qarag'ay, zarnob, samshit va qora marjon.

- Yarim soya hosil qiluvchi manzarali daraxtlar – kumush rang bargli jo'ka, lola daraxti, oddiy chetan, veymut qarag'ayi, yirik gulli magnoliya, oddiy archa, uchqat, yapon behisi, do'lana, tatar zarangi va magnoliyalardan iborat.

O'simliklar o'zining individual rivojlanish jarayonida bir qator davrlarni o'taydi, ya'ni niholdan yetuklik davrigacha. Bu davrlarda bir o'simlik shox-shabbasining har xil kattaligi, shakli, o'sishining tezligi bilan tavsif lanadi.

Tez o'sib rivojlanish daraxt o'simliklarining muhim xususiyatidir. Tez o'suvchi daraxt va butalar manzarali ko'rinishini, sanitargigiyenik samarasini va himoya (ixota) xususiyatini ertaroq beradi.

Xiyobonlar barpo etishda va ko'kalamzorlashtirishda daraxtlarning balandligi, at emir va shox-shabbasi bo'yicha o'sib rivojlanishi e'tiborga olinadi. Manzarali yog'ochbop daraxtlarning balandlikka qarab tez o'sishi asosan 10, 20 va 30 yoshida namoyon bo'ladi. Manzarali daraxtlar ning tez o'sib rivojlanishini kurtak va shoxlarining novdalariga qarab quyidagicha o'lchamlarda taqsimlanib boriladi:

- Nihoyatda tez o'suvchi daraxt turlariga (2–5 m gacha novda beradigan) – evkalipt, qora va piramidasimon, Kanada va at em teraklari, tog' teragi, oq tol, oq akas, tikansimon gle dichiya va zarang turkumlari kiradi.

- Tez o'suvchi daraxt turlariga (1–2 m gacha) – qora yong'oq, pensilvan shumtol, grek yong'og'i, go'zal at emi, oq tut, lola daraxti, mayda barg li qayrag'och, qrim, eldor va veymut qarag'aylari.

- O'rtacha o'lchamda o'suv chilar – o'tkir bargli zarang, dala zarangi, oddiy eman, yirik barg li jo'ka, tikansimon qora qarag'ay, virgin archasi va engelman qora qarag'aylaridan iborat.

Shox-shabbalarining bir-biri bilan tez tutashib ketishi parvarish qilish ishlarini tezroq tugatishga imkon beradi, bu esa daraxtzorlarni barpo qilish ishlarini arzonlashtiradi.

Daraxt turlarining ko'proq vaqt o'sishi bog'-park qurilishida katta ahamiyatga egadir. Bu iqtisodiy nuqtayi nazardan tashqari estetik ma'noda ham zarur, chunki yoshi ulug', yaxshi o'sgan daraxt yosh daraxtlarga nisbatan manzarali bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida yashil qurilishda muhim ekologik omillar: havoning harorati, tuproqning harorati, tuproqning namligi va oziqa rejimi, yorug'lik va havoning tarkibi hisoblanadi. Tuproqning ozuqa va namlik rejimini o'ziga xos agrotexnika bilan boshqarish mumkin, havoning va tuproqning haroratini deyarli boshqarish qiyin.

Manzarali daraxt va o'simliklar turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, ammo ularning o'ziga xos xususiyatlarini qisqa qilib quyidagicha holda bo'lishi mumkin:

Manzarali daraxtlar:

Balandligi va yoshi: Manzarali daraxtlar, odatda yuqori bo'yi va kata yoshga ega bo'lgan uzun daraxtlardir. Ular ushbu xususiyatlari bilan esa doim bo'ladigan muqim manzaralarni yaratishda o'z xizmat qiladi.

Rangi va shakllari: Ular rang-barang va murakkab shakllarga ega bo'lib, turli ranglardagi barglari hamda mevalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, ularning tuproqqa solingan qismlarining o'lchami va shakli o'zgaradi.

O'zgartirishsiz havo sharoiti: Manzarali daraxtlar o'z ichiga aeroblar va fotosintez uchun kerakli bor elementlarni olish uchun xavfsiz havo sharoatiga muhtoj.

O'simliklar:

Dengizlarda yashaydigan o'simliklar: O'simliklar, dengiz va suv sohalarida yashaydigan turlarining umumiy nomidir. Ular odatda suv osti o'simliklari va daraxtlar bilan farq qiladi hamda dengizlarning ekosistemasi uchun muhimdir.

Xususiy aromat va ranglar: Ko'pchilik o'simliklarni mahsulot qilishda yoki oziqligida ishlatiladigan xususiy aromat va ranglarga ega bo'lishi mumkin. Ular ayni paytda tabiiy ranglarga boy bo'lishi ham mumkin.

O'simliklarning Turlari: Manzarali daraxt va o'simliklar turli xil turda bo'lishlari mumkin. Bu, ularning biologik xususiyatlari, o'simlikning o'sishi, o'simlikdagi hayot jarayoni, va uning o'ziga xos usullarini o'z ichiga oladi.

O'zaro Ta'sir va Hamkorlik: Manzarali daraxt va o'simliklar birgalikda hayotda o'zaro ta'sir qilishadi. Ular hayotiy tizimlar, hayvonlar, va boshqa o'simliklar bilan birgalikda yashaydi. Bu o'zaro ta'sir va hamkorlik, o'simliklarning o'zlarini muhofaza qilish, zarur moddalarini olish va turli xil turdagi hayot jarayonlariga mos kelishiga olib keladi.

Umuman olganda, manzarali daraxtlar va o'simliklar turli hayot o'zgarishlarini hamda ularning hayot muhitiga mos ravishda ajoyib xususiyatlarni ta'minlashi mumkin bo'lishini o'z ichiga olganlardir.

Biz kundalik hayotimizda ko'p marotaba uchradigan daraxt va butalar bizning hayot faoliyatimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Chunki har-bir daraxt, buta, o'simlik bu kislorod ishlab chiqaruvchi manba hisoblanadi. Kislorod esa bu har birimizning hayot kechirishimiz uchun birlamchi ehtiyojdir.

Ko'chalarning arxitekturaviy manzarasini shakllantirishda daraxt va butalar beqiyos rang-barang shakllar, fakturalar va qiyofa hosil qiladi. O'simliklarning manzaraboplik xususiyatlarining ko'pligi, buning ustiga, vaqt va fasllar doirasida o'z qiyofasini o'zgartirib turishi; hududlarning landshaft-arxitekturaviy ko'rinishini o'zgartirishga cheklanmagan imkoniyatlarni ochib beradi. Ekinzorlar shunday bir materialdirki, u aloxida binoni yoki bir necha binolarni, aholi yashash hududlarining yaxlit ko'rinishini ta'minlaydi. Yashil ekinzorlar, katta yo'l va ko'chalar yoqasidagi ko'kalamzorlashtirilgan yo'lkalar aholi yashash qismlarini birlashtirib turadi hamda uy-joylarga go'zal manzara bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Юсупова М. Н., Ахмедова М. М. МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИГА УЙЎУНЛАШГАН КУРАШ ЧОРАЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – Т. 2. – №. 8.

2) Ходжаев, Ш. Т., Сагдуллаев, А. У., Исаев, О. Б., & Юсупова, М. Н. (2011). Проблемы защиты растений в Узбекистане. Защита и карантин растений, (8), 23-



24. Юсупова М. Особенности защиты хлопчатника посеянного под пленки от вредных организмов // Автореф. канд. дисс./М. Юсупова–Ташкент. – 2001.

3) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Курязов, Ш., & Саттаров, Н. (2008). Перспективы биологической защиты хлопчатника от хлопковой совки. Сб. трудов.- Ташкент: Таллин, 44-49.

4) Yusupova M. N., Nosirov B. Z. Pests of cotton and straw control at collection // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. – 2020. – Т. 6. – №. 12. – С. 57-61.

5) Yusupova M. N., Axmedova M. M. Mevali daraxtlarni zararkunandalariga uygunlashgan kurash chorolari // Jurnal JURNAL AGRO PROTSESSING. Data publikatsii. – 2020. – №. 8. – С. 12.

6) Yusupova M. N. Biological method of crop protection in the fergana valley // Agrarian science. – 2018. – №. 6. – С. 68-70.

7) Urmonovich, Numonov Otabek. "MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.5 (2023): 3-5.

8) MN, Yusupova, and B. Z. Nosirov. "Control Of Cotton Pests On Stubble Lands." International Journal of Applied 10.2 (2015): 99-108.

9) Юсупова М. Н., Тургунова А. Н., Очиллов С. Н. Система интегрированной защиты растений // Российский электронный научный журнал. – 2015. – №. 1. – С. 169-174.

10) Alimzhanova Z. I., Kadyrova D. S., Yusupova M. N. Ceramic pigments based on raw materials from Uzbekistan // Glass and Ceramics. – 2014. – Т. 70. – №. 11-12. – С. 441-443.

11) Yusupova M. N., Gapparov A. M. Biological Method Of Plant Protection In Uzbekistan // The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 29-32.

12) Rashidovna M. N., Urmonovich N. O. Comparative Characteristics of the Leaving of Glutathione From Cells of Different Types // International Journal on Orange Technologies. – Т. 2. – №. 10. – С. 79-82.

13) Юсупова М. Н., Носиров Б. З. БИОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ // Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 498-501.

14) Urmonovich, N. O. (2023). MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 14(5), 3-5.

15) Yusupova M. et al. Protection of after harvest cultures-as a reservoirs of cotton pests // Agriculture and Biology Journal of North America. – 2013. – Т. 4. – №. 5. – С. 576-582.

- 16) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., Исаев, О. Б., & Шокирова, Г. (2011). Борьба с вредителями хлопчатника на пожнивных культурах в севообороте. Вестник защиты растений, (2), 46-52.
- 17) Yusupova M. N. et al. Possibilities of the biological method of cotton plant protection //Agriculture and Biology Journal of North America. – 2011. – Т. 2. – №. 5. – С. 742-744.
- 18) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., & Жамалов, А. Г. (2010). Хлопковая совка на пожнивных культурах. Защита и карантин растений, (12), 22-23.
- 19) Хайдарова, Х. А., Юсупова, М. Н., Ихтиярова, Г. А., & Хайдаров, А. А. ПОЛУЧЕНИЕ ХИТОЗАНА ИЗ ПОДМОРА ПЧЕЛ APIS MILLIFERA. Сучасний рух науки: тези доп. XI міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 8-9 жовтня 2020 р.–Дніпро, 2020.–Т. 2.–426 с., 352.
- 20) Yusupova M., Turgunova A., Ochilov S. INTERGRATED PLANT PROTECTION SYSTEMS.
- 21) Abduhamidovich N. A. et al. MANGOSTIN DARAXTI VA MEVASINI TIBBIYOTDA FOYDALANISH //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 2. – С.12-14.
- 22) Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 5. – С. 3-5.
- 23) Юсупова, Махпуза Нумановна. "АНОРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ." PEDAGOG 6.4 (2023): 562-567.
- 24) Юсупова М. Н. и др. ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШАРОИТИДА ИГНА БАРГЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ //SO 'NGI ILMİY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 316-320.